



FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA
VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

2023- yil
yanvar-dekabr




FARG'ONA VILOYATINING DOIMIY AHOLISI*2024- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar*

Farg'ona viloyatida 2024- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni 4 061,5 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 87,8 ming kishiga yoki 2,1 % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 2 309,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,9 %), qishloq aholisi soni 1 752,1 ming kishi (43,1 %) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni**4 061,5** *ming kishi***Tabiiy o'sish****(+) 87,8** *ming kishi***Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi****Shahar****56,9%****Qishloq****43,1%**


Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023- yil yanvar-dekabr



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni 2024- yil 1- yanvar holatiga


soni 2024- yil 1- yanvar holatiga



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining 31,6 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 56,1 %i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 12,3 %i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2023- yil 1- yanvar holatiga



2023- yil 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 236,7 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib, 76,3 ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 220,6 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni 83,1 ming kishini tashkil etgan.

Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi


2023- yil 1- yanvar holatiga



2023- yilning 1- yanvar holatiga Farg'ona viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 75,4 yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun 73,4 yoshga, ayollar uchun esa 77,3 yoshga teng. Shahar joylar 76,1 yosh qishloq joylar uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 74,4 yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1- yanvar holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	3 976,3	4 061,5	102,1
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	314,4	321,8	102,3
Qo'qon	303,6	309,1	101,8
Quvasoy	98,8	101,2	102,4
Marg'ilon	246,7	250,9	101,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	223,7	228,4	102,1
Qo'shtepa	203,5	209,1	102,7
Bag'dod	227,9	233,0	102,2
Buvayda	241,5	247,2	102,4
Beshariq	238,4	242,9	101,9
Quva	270,7	275,8	101,9
Uchko'prik	236,1	241,7	102,4
Rishton	212,3	216,9	102,2
So'x	82,1	83,9	102,2
Toshloq	214,3	219,1	102,2
O'zbekiston	230,7	235,0	101,9
Farg'ona	217,1	221,5	102,0
Dang'ara	172,7	177,1	102,5
Furqat	124,4	127,1	102,2
Yozyovon	117,2	119,8	102,2

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi

2024- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Farg'ona viloyatida 2024- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha 600,8 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 12,5 kishiga ortgan (2022- yilda 1 kv.km.ga 588,3 kishi).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Qo'qon shahrida 7 727,5 kishi, Marg'ilon shahrida 5 018,0 kishi, Farg'ona shahrida 3 218,0 kishi, Toshloq tumanida 912,9 kishi, Buvayda tumanida 882,9 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Yozyovon tumani 292,2 kishi, Beshariq tumanida 315,5 kishi, Oltiariq tumanida 362,5 kishi, Farg'ona tumanida 369,2 kishi, So'x tumanida 381,4 kishini tashkil etgan.


Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR

yanvar-dekabr




Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti 2023- yil yanvar-dekabr, kishi

Qo'qon sh.	7 976	26,0%
Fag'ona sh.	7 373	23,2 %
Buvayda t.	6 904	28,3 %
Uchko'prik t.	6 879	28,8 %
Quva t.	6 693	24,5%
Marg'ilon sh.	6 570	26,4 %
Bag'dod t.	6 512	28,3 %
Qo'shtepa t.	6 230	30,2%
Oltiariq t.	6 041	26,7 %
Farg'ona t.	5 913	27,0 %
Beshariq t.	5 899	24,5 %
Toshloq t.	5 791	26,7 %
Rishton t.	5 784	27,0 %
O'zbekiston t.	5 752	24,7 %
Dang'ara t.	5 158	29,5 %
Furqat t.	3 264	26,0 %
Yozyovon t.	3 055	25,8 %
Quvasoy sh.	2 594	25,9 %
So'x t.	2 109	25,4%

2023- yil yanvar-dekabr oylarida 106,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 26,5 promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan 0,8 promillega oshganligi kuzatildi (2022- yilda 25,7 promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR

yanvar-dekabr



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-dekabr, kishi

Farg'ona sh.	1 740	5,5 %
Qo'qon sh.	1 499	4,9 %
O'zbekiston t.	1 213	5,2 %
Quva t.	1 210	4,4 %
Marg'ilon sh.	1 191	4,8 %
Bag'dod t.	1 132	4,9 %
Beshariq t.	1 081	4,5 %
Uchko'prik t.	1 073	4,5 %
Farg'ona t.	1 066	4,9 %
Oltiariq t.	1 054	4,7 %
Buvayda t.	967	4,0 %
Toshloq t.	934	4,3 %
Rishton t.	912	4,2 %
Qo'shtepa t.	906	4,4 %
Dang'ara t.	851	4,9 %
Furqat t.	600	4,8 %
Yozyovon t.	451	3,8 %
Quvaso'y sh.	427	4,3 %
So'x t.	351	4,2 %

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 18,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 0,1 promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilda 4,7 promilleni tashkil etgan).

O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi


2023- yil yanvar- dekabr, kishi



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining 64,8 %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,2 %i – o'simtalardan, 4,2 %i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,7 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,7 %i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 0,8 %i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 11,6 %i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR

yanvar-dekabr




Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti 2023- yil yanvar-dekabr, birlik

Farg'ona sh.	2 250	7,1 %
Qo'qon sh.	2 133	7,0 %
Quva t.	1 981	7,3 %
Marg'ilon sh.	1 943	7,8 %
Buvayda t.	1 936	7,9 %
Uchko'prik t.	1 935	8,1 %
Oltiariq t.	1 900	8,4 %
Beshariq t.	1 899	7,9 %
Rishton t.	1 890	8,8 %
Bag'dod t.	1 841	8,0 %
Farg'ona t.	1 810	8,3 %
O'zbekiston t.	1 739	7,5 %
Qo'shtepa t.	1 669	8,1 %
Toshloq t.	1 579	7,3 %
Dang'ara t.	1 416	8,1 %
Yozyovon t.	886	7,5 %
Furqat t.	854	6,8 %
So'x t.	572	9,1 %
Quvasoy sh.	708	7,1 %

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 31,1 mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 7,7 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,4 promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 8,1 promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR

yanvar-dekabr



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti 2023- yil yanvar-dekabr, birlik

Farg'ona sh.	762	2,4 %
Qo'qon sh.	619	2,0 %
Marg'ilon sh.	364	1,5 %
Bag'dod t.	344	1,5 %
Farg'ona t.	333	1,5 %
Rishton t.	328	1,5 %
Quva t.	325	1,2 %
Uchko'prik t.	305	1,3 %
Oltiariq t.	290	1,3 %
O'zbekiston t.	286	1,2 %
Buvayda t.	285	1,2 %
Beshariq t.	258	1,1 %
Qo'shtepa t.	238	1,2 %
Dang'ara t.	231	1,3 %
Toshloq t.	215	1,0 %
Quvasoy sh.	169	1,7 %
Furqat t.	159	1,3 %
Yozyovon t.	158	1,3 %
So'x t.	104	1,3 %

2023- yil yanvar-dekabr oylarida 5,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,4 promilleni tashkil etgan. (2022- yil yanvar-dekabr oylarida 1,4 promille bo'lgan).

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 8 944 kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 11 555 kishini tashkil etib, migratsiya saldosi minus 2 681 kishini tashkil etdi.


Farg'ona viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni

2023- yil yanvar-dekabr, kishi

	Ko'chib kelganlar Jami	Ko'chib ketganlar Jami
Farg'ona viloyati	8 944	11 555
<i>shaharlar:</i>		
Farg'ona sh.	4 175	2 437
Qo'qon sh.	249	1 198
Quvasoy sh.	484	329
Marg'ilon sh.	20	1 172
<i>tumanlar:</i>		
Oltiariq t.	173	427
Qo'shtepa t.	568	323
Bag'dod t.	22	338
Buvayda t.	162	425
Beshariq t.	239	635
Quva t.	217	650
Uchko'prik t.	170	328
Rishton t.	196	415
So'x t.	118	71
Toshloq t.	363	425
O'zbekiston t.	289	550
Farg'ona t.	575	1 033
Dang'ara t.	410	277
Furqat t.	373	313
Yozyovon t.	141	209

JAMI KO'CHIB KELGANLAR

yanvar-dekabr



Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti


2023- yil yanvar-dekabr, kishi

Farg'ona sh.	4 175	13,1 %
Farg'ona t.	575	2,6 %
Qo'shtepa t.	568	2,8 %
Quvasoy sh.	484	4,8 %
Dang'ara t.	410	2,3 %
Furqat t.	373	3,0 %
Toshloq t.	363	1,7 %
O'zbekiston t.	289	1,2 %
Qo'qon sh.	249	0,8 %
Beshariq t.	239	1,0 %
Quva t.	217	0,8 %
Rishton t.	196	0,9 %
Oltiariq t.	173	0,8 %
Uchko'prik t.	170	0,7 %
Buvayda t.	162	0,7 %
Yozyovon t.	141	1,2 %
So'x t.	118	1,4 %
Bag'dod t.	22	0,1 %
Marg'ilon sh	20	0,1 %

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 8,9 mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 2,2 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga 2,2 promille tashkil etgan.


JAMI KO'CHIB KETGANLAR

yanvar-dekabr



Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-dekabr, kishi



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 11,6 mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 ta aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 2,9 promilleni tashkil etgan. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 2,9 promille bo'lgan.

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 73 241-97-74